

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida
UDK: 336.77.067.22

ZAYNIDDINOV RUHIDDIN XUSNIDDIN O'G'LI

**O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI ISLOMIY
MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ilmiy darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA**

Ilmiy rahbar: iqtisodiyot fanlari doktori, professor N.M. Mahmudov

Toshkent-2025-yil

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. ISLOMIY MOLIYA TIZIMINING LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHNI TASHKIL QILISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.....	13-43
1.1. Islomiy moliyalashtirishning tashkiliy va boshqaruv tizimi hamda amalda qo‘llash tamoyillari.....	13
1.2. Islomiy moliyalashtirishning an‘anaviy moliyalashtirishdan farqli jihatlari: tamoyillari, tarkibiy tuzilishi va instrumentlari.....	24
1.3. Islomiy moliyalashtirish tizimini tashkil etish borasida ilg‘or xorijiy tajribalar...30	
I-bob bo‘yicha xulosalar.....	43
II BOB. INVESTITSIYA LOYIHALARINI ISLOMIY MOLIYALASHTIRISH ASOSIDA TASHKIL ETISH AMALIYOTI.....	44-84
2.1. O‘zbekistonda islomiy moliyalashtirishni tashkil etishning huquqiy jihatlari va ularni joriy qilinishi holati tahlili.....	44
2.2. O‘zbekistonda islomiy moliya vositalari asosida amalga oshirilgan investitsion loyihalar loyihalar tahlili.....	50
2.3. O‘zbekistonda investitsiya loyihalarini islomiy moliyalashtirishning kengayishiga ta’sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili.....	57
II-bob bo‘yicha xulosalar.....	84
III BOB. O‘ZBEKISTONDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI ISLOMIY MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI.....	85-116
3.1. O‘zbekistonda islomiy moliyalashtirish amaliyoti bilan bog‘liq muammolar va ularni hal etish yo‘llari.....	85
3.2. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarida islomiy moliyalashtirish konsepsiyalarini asoslash va joriy etish.....	91
3.3. Investitsiya loyihalarini islomiy moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish.....	100
III-bob bo‘yicha xulosalar.....	116
XULOSA.....	117
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	120

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi. Bugungi kunda jahonda islomiy moliya tarmogʻi jadal rivojlanib borayotgan va ishonchli, innovatsion moliyalashtirish mexanizmini oʻzida jamlangan sohalaridan biri hisoblanib, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda anʼanaviy bank va moliya xizmat turlari bilan birga muqobil va samarali tizim sifatida takomillashib bormoqda.

Ushbu innovatsion yondashuv nafaqat xizmat koʻrsatish metodlarini yangilab bormoqda, balki moliya sohasida yangi standartlar oʻrnatish orqali iqtisodiy faollikni ragʻbatlantiruvchi barqaror mexanizm sifatida ham eʼtirof etilmoqda. “Soʻngi yigirma yillik ichida jahon islom bank-moliya tizimi hajmi 2007-yilgi 758 mlrd. AQSh dollaridan 2023-yil yakuniga koʻra 4,9 trillion AQSh dollariga yetdi (yiliga oʻrtacha 10-15 %ga oʻsib bormoqda) hamda 2028-yilga borib 7,5 trillion dollarga yetishi prognoz qilinmoqda”¹. Islom moliyasining jadal rivojlanishi va xalqaro miqyosda tobora koʻproq qoʻllanilishi uning yuqori dinamikasini anglatadi. Bu tendensiyaning nafaqat musulmon aholisi koʻp boʻlgan davlatlardagi, balki ular ozchilikni tashkil qiladigan mintaqalarda ham kuzatish mumkin. Bunda asosiy omil - Islomiy moliya tamoyillariga asoslangan instrumentlarning turli mamlakatlarning moliyaviy strategiyalariga asta-sekin integratsiyasi hisoblanadi.

Ayniqsa, Osiyo va Yevropa mamlakatlarida kuzatiladigan yangi tendensiya - klassik bank modeli bilan Shariat qoidalariga mos moliya mexanizmini parallel tarzda joriy etish (dual tizim) boʻyicha amaliy tadqiqotlar kuchaymoqda. Bu yondashuv nafaqat resurslarning optimal taqsimlanishiga, balki xalqaro kapital bozorlarida Halol moliya instrumentlarining kredit reytingini oshirishga xizmat qilmoqda.

Zamonaviy tadqiqotlar diqqat markazida quyidagi yoʻnalishlar mavjud:

investitsion samaradorlik tahlili: Shariat tamoyillari asosida moliyalashtirilgan loyihalarning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlik darajasini kompleks baholash metodologiyalarini ishlab chiqish;

¹ Islamic Corporation for the Development of the Private Sector-Refinitiv. "Islamic Finance Development Report 2024.

madaniy, diniy yoki ijtimoiy sabablar tufayli an'anaviy bank xizmatlaridan chetda qolgan aholi va korxonalarni "Halol investitsiyalar" tizimi orqali milliy moliya tarmog'iga integratsiyalash;

dual tizim sintezi: klassik bank tizimi bilan muvozanatli raqobat qiluvchi Islom moliya modelini joriy etish (masalan, Malayziya, BAA va Turkiya tajribasi) va ularning sinergiyasini global iqtisodiyot parametrlari (YaIM, bandlik, innovatsiyalar) bilan korrelyatsiyalash.

O'zbekistonda so'nggi yillarda Islom moliyasi tamoyillari asosida amalga oshiriladigan investitsion loyihalarga bo'lgan talab sezilarli darajada oshib bormoqda. Misol tariqasida, 2024-yilda Islom taraqqiyot banki (ITB) tomonidan qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirish maqsadida 400 million AQSh dollari miqdorida maxsus kredit liniyalari ajratilganligi bu yo'nalishdagi jadal rivojlanishni ko'rsatadi. Shu bilan birga, soha ko'lamini tobora ortishi uchun Islom taraqqiyot banki (ITB) va uning guruhidan bevosita hamda bir qancha tijorat banklarida tashkil etilgan ushbu moliya institutining liniyalari orqali investitsion loyihalarni moliyalashtirishda qulay sharoitlarni shakllantirish, Islom moliyasi imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda mamlakatda investitsion va tadbirkorlik muhitini yaxshilash, shuningdek, loyihalarni islomiy moliyalashtirishni rivojlantirishga qaratilgan huquqiy normalarni ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu maqsadda, 2023-yil 11-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan PF-158-sonli farmonda "O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida kamida 3 ta tijorat bankida Shariat tamoyillari asosida moliya xizmatlarini joriy etish, shuningdek, Islom moliyasining qonuniy asoslarini yaratish va takomillashtirish kabi vazifalar belgilab qo'yilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish jarayonida Islom moliyasi tamoyillari asosida investitsion loyihalarni moliyalashtirishni kengaytirishga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish, tijorat banklarida loyihalarni islomiy moliyalashtirish mexanizmini yangilash, shuningdek, Islom taraqqiyot banki (ITB) va uning guruhi tomonidan taqdim etilayotgan kredit liniyalari orqali investitsion dasturlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada rivojlantirish ahamiyatli yo'nalishlardan hisoblanadi.